

SAMARQANDNING "JAHON MADANIY TURIZM POYTAXTI" SIFATIDA E'TIROF ETILISHI

Norbutayeva Gulandom

SamDU magistranti.

Gmail: gulandonnorbotayeva3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14406431>

Annotatsiya. Bugungi kunda Samarqand respublikadagi yirik shahar sifatida nafaqat ichki, balki, tashqi turizm sohasida ham muhim o`rin tutadi. Mustaqillik yillarida O`zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-madaniy hayotni isloh qilish jarayonida moddiy madaniyatning muhim bo`g`imlaridan biri bo`lgan shaharsozlikka alohida e`tibor qaratildi. Jumladan, Samarqanddagi bunyodkorlik ishlari jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib, Samarqand "Jahon madaniy turizm poytaxti" deb e`lon qilindi. Ushbu maqolada Samarqandda turizm sohasining rivojlanish tarixi va ushbu sohani yanada yuksaltirishning ahamiyati haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Samarqand, turizm, madaniyat, xorijiy sayyoh, tarixiy ob`ektlar, mehmondo`stlik, YUNESKO, iqtisodiyot, ziyorat.

ПРИЗНАНИЕ САМАРКАНДА В КАЧЕСТВЕ "МИРОВОЙ СТОЛИЦЫ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА"

Аннотация. Сегодня Самарканд, как крупный город республики, занимает важное место не только во внутреннем, но и в международном туризме. В процессе реформирования социально-культурной жизни, осуществленного в Узбекистане за годы независимости, особое внимание было уделено градостроительству, являющемуся одним из важнейших компонентов материальной культуры. В частности, созидательная деятельность в Самарканде была признана мировым сообществом, и город был провозглашен "Мировой столицей культурного туризма." В данной статье рассматривается история развития туристической отрасли в Самарканде и подчеркивается важность дальнейшего развития этой сферы.

Ключевые слова: Самарканд, туризм, культура, иностранные туристы, исторические объекты, гостеприимство, ЮНЕСКО, экономика, паломничество.

RECOGNITION OF SAMARKAND AS THE "WORLD CAPITAL OF CULTURAL TOURISM"

Abstract. Today, Samarkand, as a major city in the republic, plays a significant role not only in domestic tourism but also in international tourism. During the years of independence, as part of the process of reforming the socio-cultural life in Uzbekistan, special attention was paid to urban planning, which is one of the crucial components of material culture. Notably, the development work in Samarkand has been recognized by the global community, leading to

Samarkand being declared the "World Capital of Cultural Tourism." This article discusses the history of tourism development in Samarkand and the importance of further advancing this sector.

Key words: Samarkand, tourism, culture, foreign tourists, historical sites, hospitality, UNESCO, economy, pilgrimage.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasining rivojlanishi va uni iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biriga aylantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash va jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishdagi ahamiyati bilan bog'liq. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ziyorat turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida - «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish, Respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashning hozirgi sharoitlarida ziyorat turizm sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznesning sheriklik mexanizmidan foydalangan holda ziyorat turizm samaradorligini oshirishda turistik klasterlash usulidan foydalanish yo'llari qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]

Samarqand shahri o'zining navqironligi tabiatining musofoligi qolaversa, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklari bilan ham dovrug' qozongan desak, mubolag'a bo'lmaydi. "The Haffington post" nashri tomonidan Samarqand shahri jahondagi inson o'z umri davomida albatta borib ko'rishi shart bo'lgan 50 ta shaharlardan biri deb e'lon qilinishi, ko'plab xorijiy turistlarni yanada jalb etish imkonini yaratadi. Mamlakatimizning sayyohlik salohiyati jahonning turizm rivojlangan davlatlaridan kam emas. Ya'ni, bizda borib ko'rish, ziyorat qilish, zavq olish mumkin bo'lgan turistik obyektlar ko'p. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi tarixiy shaharlarimizdan tashqari, mamlakatimizning boshqa istalgan hududida ekologik turizm, agroturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI

2022 yil 15-16 sentyabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining 22-sammiti va 2023 yilda Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasiga mezbonlik qilish uchun aynan Samarqand shahrining tanlangani bejiz emas. Ming yillar davomida ushbu shahar ilm-fan va ta'lim, savdo va innovatsiyalar markazi bo'lib kelgan. 1993 yilda Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi.

Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta o'zining "Sayohatnoma asarida "Dunyoda Samarqand kabi havosi musaffo, osmoni moviy, zamini ko'm-ko'k, suvi zilol, aholisi go'zal xulqli va xorijdan kelgan insonlarga muhabbat va do'stona munosabat qiladigan jannatmonand shaharni ko'rmadim" [2] deya ta'rif etadi. Samarqandning turistik obyektlari Yevropa xalqlari doimiy ravishda qiziqtirib kelgan. Mustaqilikka erishgan vaqtimizdan to hozirgi kunga qadar ko'plab xorijiy turistlar O'zbekistonga xususan, Samarqand viloyatiga tashrif buyurganligini ko'rishimiz mumkin.

Samarqandda turizm sohasida olib borilayotgan ishlar, sayyohlar uchun yangi yo'nalishlar, yangi xizmatlar joriy etilganini dunyo mamlakatlariga ma'lum qilish, xorijdagi sayyohlik firma va kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatish ham soha taraqqiyoti uchun muhim omil sanaladi. Shu sababli Samarqand viloyati hokimining turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, viloyat turizmni rivojlantirish departamenti mas'ul xodimlari bilan birgalikda viloyatdagi turistik kompaniyalar vakillari turli mamlakatlarda o'tkazilayotgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, 2019-yili yil Ispaniyada «FITUR-2019», Turkiyadagi «EMITT2019», Rossiyadagi «MITT-2019», Germaniyadagi «ITB BERLIN-2019», Latviyadagi «Balttour2019», Birlashgan Arab Amirliklaridagi «Arabian travel market» kabi xalqaro turistik ko'rgazmalarida Samarqandning sayyohlik salohiyati va imkoniyatlari haqida taqdimotlar o'tkazildi.

2023 yilning 16-oktabr kuni BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining yubiley 25-sessiyasi doirasida Samarqand shahriga «Jahon madaniy turizm poytaxti» maqomini berish to'g'risida deklaratsiya qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, BMT Butunjahon turizm tashkiloti Bosh kotibi Zurab Pololikashvili hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov ishtirokida muhim hujjat imzolandi.

UNWTOning yubiley sessiyasi ochilish marosimida nutq so'zlagan Shavkat Mirziyoyev Samarqandga «Jahon madaniyati poytaxti» maqomini berish tashabbusini bildirdi va tadbirda qatnashayotgan xorijiy delegatlarni deklaratsiya imzolanishini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi:

- Tashkilot yubiley yig'ilishining Buyuk Ipak yo'li gavhari, Yangi O'zbekistonning yirik sayyohlik markazi bo'lmish qadimiy Samarqandda o'tkazilishi chuqur ramziy ma'noga ega. Sharq Uyg'onish davrining ikki buyuk davri rivojiga ulkan hissa qo'shgan Samarqand bugun dunyoning zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda.

Samarqandni «Jahon madaniy turizm poytaxti» deb e'lon qilish va tegishli deklaratsiyani qabul qilish haqidagi tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaysiz, degan umiddaman.

Bu yuksak maqom ko'p asrlar davomida o'zining betakrorligi va bebaho merosini asrab-avaylab kelayotgan, bag'rikengligi va mehmondo'stligi bilan keng tanilgan Samarqandning jahon miqyosidagi shuhratini e'tirof etadi».

Ta'kidlash joizki, Samarqandga faxriy maqomning berilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan tarixiy shaharning muhim madaniy turizm markazi sifatida e'tirof etilishini anglatadi.

Ma'lumot uchun, shaharda turizm infratuzilmasini yaxshilash borasida 1 milliard dollardan ortiq investitsiyalar ajratilgan. Keng ko'lamli tadbirlar o'tkaziladigan joy - «Silk Road Samarkand» xalqaro turizm markazi ushbu investitsiyalarning yirik loyihalaridan biri hisoblanadi.[3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqot Samarqandga «Jahon madaniy turizm poytaxti» maqomining berilishi va tarixiy shaharning muhim madaniy turizm markazi sifatida e'tirof etilishining tarixiy evolyutsiyasiga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslash, omilli tahlil va qiyosiy tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2010-2020 yillar davomida O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar soni dinamikasini tahlil etadigan bo'lsak, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida O'zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlarning soni 2020-yil mart oyigacha (pandemiya sababli chegaralarning to'liq yopilguniga qadar) sezilarli darajada oshganligini kuzatishimiz mumkin. 2017-yilda 2690,0 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, 2016-yilga nisbatan 24,7% o'sgan. Keyingi yillarda ham mutanosib o'sish kuzatilgan, xususan 2018-yilda 6433,0 ming, 2019-yilda 8278,0 ming xorijiy sayyohlar tashrif buyurib, ularning 92,5% MDH davlatlaridan hamda 7,5% uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan. [4]

Ta'kidlash lozimki, 2018-yilda (pandemiyaga qadar) mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar oqimini o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim omillardan biri bu turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy choratadbirlar yani viza rejimi va mamlakatda qolish qoidalarining soddalashtirilganligi bo'ldi. Jumladan, dunyoning 90 ta mamlakat fuqarolari uchun 30 kunlik muddatga vizasiz, 48 ta mamlakat fuqarolari uchun tranzit sayyoh bo'lgan holda 5 kunlik muddatga 1 va 16 yoshga to'lmagan xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasiga 90 kunlik muddatga vizasiz kirishiga 2 ruxsat berildi. [5]

Shu bilan birga, sayyohlarga viza olishda qulaylik yaratish maqsadida 2018-yil 15-iyuldan boshlab elektron kirish vizalarini berish tizimi ishga tushirildi. 2021-yil 15-mart holatiga ko'ra, elektron viza olish mumkin bo'lgan mamlakatlarning umumiy soni 57 tani tashkil qildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda COVID19 pandemiyasi oqibatlariga qaramasdan AQSH «Forbes» moliyaviy-iqtisodiy jurnali O'zbekistonni 2022-yilda sayohat qilish uchun 50 ta eng

yaxshi manzil qatoriga kiritgan. Ushbu ro'yxatni shakllantirishda asosan davlatlarning sayyohlarni qabul qilish jarayoniga siyosiy nuqtai nazardan berilgan e'tibor, ya'ni pandemiyaga moslashuvchanlik (chegaralarning ochiqqligi) hamda xavfsiz sayohat qilish imkoniyatlariga e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomondan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil 1-yanvar holatida respublikada sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanadigan firma va tashkilotlar soni 517 tani tashkil etdi, ularning eng katta ulushi Toshkent shahriga (64.2%) va Samarqand viloyatiga (13.2%) to'g'ri keladi. Samarqand viloyatida sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanadigan 68 ta firma va tashkilotlar, bir vaqtning o'zida 6100 nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega 138 ta mehmonxona hamda 93 ta mehmon uyi faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan 820 nafar mehmonga bir vaqtning o'zida aynan 93 ta mehmon uyi sifatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Samarqand viloyat turizm va sport bosh boshqarmasi rahbari Dilshod Narziqulovning ma'lumotlariga ko'ra viloyatda 2019-2021-yillar davomida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kredit liniyasi orqali turizm infratuzilma obyektlarini rivojlantirish maqsadida 74 ta loyihani qamrab olgan 1311,8 milliard so'mlik 44 ta manzilli dastur ishlab chiqilgan. Asosiy maqsad sayyohlar oqimini ko'paytirish, sayyohlar uchun yangi yo'nalishlar, yangi xizmatlar joriy etilganini dunyo mamlakatlariga ma'lum qilish, xorijdagi sayyohlik firma va kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatish, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish hamda turli yirik xalqaro tadbirlarni o'tkazish uchun hududning har tomonlama tayyorgarligini ta'minlash. Shu sababli Samarqand viloyati hokimining turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, viloyat turizmni rivojlantirish departamenti mas'ul xodimlari va viloyatdagi turistik kompaniyalar vakillari turli mamlakatlarda o'tkazilayotgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda.

Jumladan, 2019-yilda Ispaniyada "FITUR 2019", Turkiyadagi "EMITT2019", Rossiyadagi "MITT2019", Germaniyadagi "ITB BERLIN2019", Latviyadagi "Balttour2019", Birlashgan Arab Amirliklaridagi "Arabian travel market" xalqaro turistik ko'rgazmalarida Samarqandning sayyohlik salohiyati va imkoniyatlari haqida taqdimotlar o'tkazildi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning telekanallari ijodkorlari Samarqandga kelib, maxsus ko'rsatuvlar tayyorladi.

[6]

XULOSA

Zamonaviy davrda jahon iqtisodiyotidagi turizm sanoati haqli ravishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu asosan global siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, madaniy, ekologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Yangi asr, BMT tahliliga ko'ra, "turizm asri" deb e'lon qilindi, ya'ni turizm butun dunyo hamjamiyati iqtisodiyotining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda, uning milliardlab aholisi har yili sayohatga chiqmoqda. [7]

Respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi katta rol o'ynaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda inson va uning manfaatlari birinchi o'ringa qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, barcha xizmat ko'rsatish sohalari faoliyati fuqarolarga munosib hayot tarzini yaratib berishga qaratilgan. Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish, kompyuterlarni dasturlashtirish xizmatlari, moliya, transport xizmati, qurilish, turizm, savdo va umumiy ovqatlanish, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, texnika va uskunalarni ta'mirlash, maishiy xizmat ko'rsatish keng rivojlanmoqda. Samarqand shahri miqyosida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari soni tobora ko'payib bormoqda. Aholiga ko'rsatiladigan transport xizmati sifatini yaxshilash va qulayliklar yaratish maqsadida «Samavto» korxonasida ishlab chiqarilgan «ISUZU» rusumidagi yangi avtobuslar aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida Samarqand shahar iqtisodi respublikada o'zining keng ko'lamdagi o'rniga ega bo'ldi. Shahardagi yirik va kichik sanoat korxonalari, shuningdek, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish hajmi ortdi.

Azaldan ilm-fan markazi, tamaddun o'chog'i hisoblangan Samarqand shahri bugungi kunda ham fan, ta'lim va madaniyat sohalarida respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Istiqlol yillarida shu sohalarida olib borilgan ulkan va izchil islohotlar tufayli erishildi.

Mustaqillik arafasida bu borada juda katta muammolar mavjud bo'lib, ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyati zamon va milliy taraqqiyot talablariga javob bermas, aholining ma'naviy ehtiyojlarini mutlaqo qondira olmas edi. Bunday muammo Samarqand shahrining ta'lim sohasida ham mavjud edi. Sobiq tuzumdan ana shunday meros bilan qolgan ijtimoiy-madaniy muassasalar mustaqillik yillarida tubdan qayta qurildi. Bu borada qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari, qaror va farmonlari ijrosi davomida qator bunyodkorlik va ta'mirlash ishlari, moddiy texnika bazasini yangilash va modernizatsiya qilish, zamonaviy shartsharoit, texnologiya bilan ta'minlash ishlariga katta e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning bergan ko'rsatmalariga ko'ra, Samarqand shahrida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami talaygina. Bu vazifalarning bajarilishi, Samarqandda ishlab chiqarish hamda turizmni rivojlantirish maqsadida istiqbolda zamonaviy kommunikatsiya, innovatsiya, logistika, xizmat ko'rsatish va servis sohasini sifatli amalga oshirish jahon hamjamiyatida Samarqand shahrining brend shahar sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. [8]

REFERENCES

1. Эргашев. Р, Узақов Ж. Зиёрат туризм Самарадорлигини оширишда туристик кластерлаш усулидан фойдаланиш йўллари. //“Iqtisodiyot va innovatsion

- texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali.// 134-bet.
2. Т.Эвадуллаев. Самарқандда зиёрат туризмини ривожланишда муқаддас кадамжоларнинг ўрни.// “Ўзбекистонни топ 10 туристик ҳудудлар каторига киритиш истиқболлари, барқарор ривожланиш имконияртлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.. -Бухоро 2020. -Б.81.
 3. <https://gov.uz/uz/news/view/3308>
 4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari” 2017, 2016yillik statistik byulleteni ma’lumotlari.
 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son Farmoni.
 6. Rahimova Nilufar Aminovna, Mansurova Nargiza Shamsidinovna, Raximov Zarrux Aminovich “Samarqand viloyati turistik salohiyatining tahlili” // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №6 (154). 10.12.2024).
 7. Мусурманова, А. (2019). Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. Проблемы педагогики, (1 (40)), 5-7.
 8. Bekmurodova L. “Turizm va mehmondo‘stlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari // ORIENSS. 2022. №8. 10.12.2024).
 9. S.I.Muxiddinov. “Samarqand tamadduni tarixi”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand davlat universiteti, 2022.
 10. A.A.Burtsev “Samarqand: sivilizatsiya beshigi”. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. 2020.
 11. A.Xalilov “O‘zbekistonning qadimiy shaharlari: tarixiy-madaniy ahamiyati”. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2021 yil.
 12. D.Iskandarov “Samarqand: shahar rivojlanishining tarixiy sharhi”. Samarqand: Tarixiy tadqiqotlar instituti. 2023 yil.
 13. Мусурманова, А. (2011). Формирование духовных основ социальной защиты молодежи в процессе профессионального образования. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, (9), 282-284.